
Ruboiyot

Ubaydiy

Forsiy Devondan Ruboiylar

1

*Bu jon mudom sening adoying bo'lsin!
Bu dil hamisha muhtaloying bo'lsin!
Bir jon ne bo'lar — senga fido etmak uchun
Yuz jonim agar bo'lsa, fidoying bo'lsin!*

2

*Dil dardi uning davosiga arzimagay,
Jon rohati ham jafosiga arzimagay.
Ey dil, tilama ikki jahon ayshini hech,
Arzirmi g'amishta u va yo arzimagay?!*

3

*Ey dil, gar shohlik taxtida o'ltirasan,
Har dam meni oshuftayu hayron ko'rasan.
Bu shohlig-u, bu shuhrat-u, bu dabdabadan
Darveshu faqirlik yaxshiroq gar so'rasang!*

4

*Tortar o'ziga ishqu havosi yorning,
Aylar meni lol husni safosi yorning.
Ko'zimga qilib surma oyog'i gardin,
Boshimni etarman xokiposi yorning...*

5

*Hukmingda magar mamlakati Misru Yaman,
Farmoningda mulki Xitoy hamda Xo'tan,
Bor boyligini yig'sang-da yer yuzining,
Ey shoh, jahondan eltasan bitta kafan!*

6

Bo'ldi ishim ishqingda mening hayronlik,

Har lahza falak misoli sargardonlik.

Yaxshi bilasan O'zing mening holimni,

Oshiq ishi devonaligu nodonlik.

7

Bizga bu falak gohi vafo, gohi sitam,

Goh shodlig-u, goh farog'at-u, gohi alam.

Hech dil g'amu shodlikdan emasdir xoli,

Dunyoni(ng) g'amu shodligi birga har dam.

8

Inson zoti doim asiri hoyu havas,

Har sufraki, ko'rsa — ustida misli magas^[1].

Donu suv ilinjida zabun qush monand

Har lahza balo domida-yu, bandi qafas.

9

Qosh qoqadi ishva bilan ul sarvi ravon,

Qalbimni qilib kiprigi o'qiga nishon.

O'qdek o'ziga tortishidan dilda hadik,

O'qdek o'zidan otmasin uzoqqa debon.

10

Baxsh etgusi Olloh o'zi ne'mat bizga,

Ilmu ma'rifat, gavhari hikmat bizga.

Uzmasmiz umid rahmatidan, qilg'aydir —

Har ikki jahonda O'zi rahmat bizga!

11

Nuri yaqiningdan bu nuri ko'ngilning,

Nash'angdan erur ham sururi ko'ngilning.

Hech dilda huzur bo'lmas O'zingsiz, Sensan —

Har ikki jahonda huzuri ko'ngilning!

12

*Dildan sira ham qilma yiroq iymonni,
Har lahza yaqin ayla iymonga jonni.
Zikring ila har nafas safo ahli kabi
Quv dildan O'zing vasvasai shaytonni.*

13

*Xush ulki, tutar maqom fano dayri aro,
Aylab diliga mudom Xudo yodini jo.
Sidq ila qadam qo'yib vafo ko'yiga ul,
Haq yo'lida boqmas ikki dunyoga qiyo.*

14

*Yoriga bo'lar hamisha yor chin oshiq,
Qilmas sira uzlatni shior chin oshiq.
Ishq olamida o'zgani ilmas ko'zga,
Yoriga etar jonni nisor chin oshiq.*

15

*Ishqing asari ruhimda bo'lgach paydo,
Ko'z birla ko'ngil O'zingga bo'ldi shaydo.
Ismingni agarchi keltirarman tilga,
Maqsud menga ismingdan erur musammo^[2].*

16

*Gar bo'ldi ziyoda qayg'uga eshligimiz,
Yolg'izlik hasratida dilreshligimiz^[3],
Ollohga shukr, afzal erur shohlikdan,
Ey darveshlar, hamisha darveshligimiz!*

17

*Yo Rab, menga duch ayla dili ogohni,
Ko'rsatsin u solik kabi menga rohni.
Lutфу karaming birla bu dam ogoh et
Ul Ka'bai vaslingdan Ubaydullohni.*

18

*Mahsharda so‘ralgay — ahdingga ayla vafo,
Ahdingni buzib, o‘z-o‘zishta qilma jafo.
Kim chiqsa mudom o‘z ahdining uddasidan,
Bilgil uni mardlar aro mardi Xudo!*

19

*Ey xoni jahon, bo‘lsin Haq yor senga!
Shohlar bari qullik etsin izhor senga!
Bo‘ldi Hirot mulki muyassar, endi —
Bo‘lsin yetti iqlim giriftor senga!^[4]*

20

*Mastman hidiga Hirot bo‘stonlarining!
Oshuftasiman sarvi xiromonlarining!
Tengsiz barisi husnu malohat ichra,
Dod dastidan-ey Hirot jononlarining!*

21

*Ey dil, kezamiz olib Hirot yoshlarini,
Endi bu shahar bog‘lari, suv boshlarini.
Ul «Bog‘i xiyobon»^[5] ichra bir davra tuzib,
Soqiy qilamiz Hirot qalamqoshlarini!*

22

*Men sarv kabi Hirotda sokin bo‘ldim,
Har bog‘u xiyoboniga maftun bo‘ldim.
Oy yuzli go‘zallarining husniga boqib,
Aqlu hush uchib, misoli Majnun bo‘ldim.*

23

*Ishqingda dilim g‘uncha kabi bog‘lab qon,
Devona bo‘libman, ey sahroyi jonon!
Men — banda: jonu dildan ado etgayman,*

Podshohim — o‘zing: har nima qilsang farmon.

24

*Sen kiyma yashil libosing, ey sarv, aslo,
Kiysang, bo‘lasan gul kabi sho‘xu ra‘no,
Bir kun bu jahon boshdan-oyoq bo‘lsa fano,
Yo‘q guldek o‘zingni bezatishda ma‘no.*

25

*So‘z birla ko‘rar esang, shariat shuldir,
Fe‘l birla ko‘rar esang, tariqat shuldir.
Xomush o‘tir-u, dam urma hech holingdan,
Nazdida muhaqqiqni(ng) haqiqat shuldir.*

26

*Sen bilsang agar, bu ko‘zagarlar, ey dil,
Tuproq‘imiz uzra qurib olib manzil,
Mayxo‘rlar uchun tuprog‘imizdan bizning
Ko‘za yasamoq bilan bo‘larlar mashg‘ul.*

27

*Ey Tangri, zafar qadahini suz menga,
Yor bo‘lsin tole’ kecha-kunduz menga.
Shavqingda ziyod bo‘lishini istayman
Kayfiyatu dardu holatu so‘z^[6] menga.*

28

*Ey dil, olam elidan uzilgan yaxshi,
Xilvatni o‘ziga go‘sha qilgan yaxshi,
G‘ayr ahlidan qochgan-u qutulgan yaxshi,
Begona qoshida xomush o‘jan yaxshi.*

29

*Ey dil, Ka‘ba orzusida yurmoq na xush!
O‘zni riyozat yo‘liga burmoq na xush!*

*Boshingni qo'yib Ka'ba ostonasiga,
Ko'nglingni ochib, yuzingni surmoq na xush!*

30

*Mayxona aro qo'ysa qadam jonona,
Maydan ko'pirar sog'aru ham paymona.
Kayf ichra chunon na'ra urarmiz, arshga —
Yetgay bemalol bu na'rai mastona.*

31

*Ul sho'x hamisha dilrabo erdi menga,
Undan necha mehru vafo erdi menga.
Faryodki, tark ayladi oshnolikni,
Yot bo'ldi o'shalki, oshno erdi menga.*

32

*Hech tutma o'zingga yor bekorlarni,
Ko'rdik hamisha xor bekorlarni.
Bir ish boshini tut — sira bekor yurma,
Tark ayla bekorlikni-yu, bekorlarni.*

33

*Ey sho'x, qilarmisan sira tarki jafo?
Javring kabi kosh yetsa edi menga vafo.
Tokay etasan jafoyu bedodu sitam,
Qil manga vafo — sen-da musulmoni Xudo!*

34

*Mardlar bilar asrorini dilu jonning,
Kayfiyatu holini bani insonning.
Sof, toza ko'ngilni(ng) qadrini bilgaylar
Sohibnazaru so'fiylari davronning.*

35

Orzum shu: Xudo porsolik baxsh etsa,

El tashvishidan judolik baxsh etsa.

Aylab u o'zimdand o'zgadan begona,

Aql ila mudom oshnolik baxsh etsa.

36

Hirotd shohi, xrlingni yomon qilgayman,

G'uncha kabi bag'ring to'la qon qilgayman.

Tig' zarbi bilan seni Hirotdan haydab,

Bir umr ovorai jahon qilgayman.

37

Ey do'st, yomon ish qilsang, men na qilay?

Iblisni agar pir bilsang, men na qilay?

Men borma desam-da, bording-u, g'am ko'rding,

Sen o'zingga o'zing qilsang, men na qilay?

38

Ishqingda bo'lak yor na qilar oshiqda,

Begona bilan kor na qilar oshiqda.

Izlab seni ishq dashti aro misli sabo

Oromu qaror na qilar oshiqda.

39

Uchratmadim Olloh siridan ogohni,

To boshlasa Haq yo'lga u men — gumrohni.

Ollohim, etib lutf chaqirsang netgay,

Qoshishta yaqin bilib Ubaydullohni.

39

Uchratmadim Olloh siridan ogohni,

To boshlasa Haq yo'lga u men — gumrohni.

Ollohim, etib lutf chaqirsang netgay,

Qoshingga yaqin bilib Ubaydullohni.

40

*Bir dam xayoling aylasa hamroz meni,
Undan sira etmagin judo boz meni.
Yo 'q senga yaqinrog 'i muqarrablardan,
O 'zishta muqarrab etganing soz meni!*

41

*Ko 'ying tuprog 'i bo 'ldi to manzilimiz,
Ketsin qo 'shilib somonu suvu gilimiz.
Ka 'ba kabi bizni dilni-da ayla tavof,
Ka 'badan emas kam sira bizning dilimiz.*

42

*Ey dil, ey dil, Xudoga xos et o 'zni,
Ham xosi o 'shal ahli xavos et o 'zni.
Zinhor seni g 'ofil etmasin shirki nihon,
Ul shirki nihondan xalos et o 'zni.*

43

*Men yor sari qay kunki safar qilgayman,
Ishq karvoni orqali xabar qilgayman.
Rihlat kuni yetsa, jonni aylab sarbon,
Karvon yo 'lini tinch, bexatar qilgayman.*

44

*Rind ahli bebodayu qadah bo 'lgaymi?
Bejomu may olamda farah bo 'lgaymi?
Demang sira majlis ichra ur-sur qilmang,
Bejanggu jadal ayshu tarab bo 'lgaymi?*

45

*Dunyo molu mulkini netarman, ey yor,
Hajringda o 'lim topish menga soz ming bor.
Yolg 'iz umidim: ikki jahonda, yo Rab,
Zor qilma o 'zingdan o 'zga zotga zinhor!*

46

Yo 'q bo 'lsa yuzing, gulni uraymi boshga?
Yo 'qdir nazarim lola kabi sirdoshga.
Kiprikda tizilgan qatra-qatra qonni
Ne deb atayin bahor gulidan boshqa?!

47

To ko 'rdim-u husningni — seni suydim men,
Dil o 'g 'irida o 'zga o 'yin tuydim men.
Vaslingdan uzoq har kecha hajring g 'amida
Hasrat uyi ichra sham ' kabi kuydim men.

48

Ey Tangri, hamisha ayla firo 'z meni,
Tark etmasin iqbol kecha-kunduz meni.
Shavqingda mudom o 'rtashini istayman
Kayfiyatu dardu holatu so 'z meni.

49

Oллоh yo 'lida kimki agar zar o 'ynar,
Bir kuni, tong yo 'q, boshini gar o 'ynar.
O 'ldirsa-yu yuz bor, yana jon baxsh etsa,
Jon birla u yangidan muqarrar o 'ynar.

50

Olamda biror sabotu bunyod yo 'qdir,
Bir xotiri xurramu dili shod yo 'qdir.
Og 'ir ham uzoq safar turar oldingda,
Bezod uni qanday o 'tasan, zod^[7] yo 'qdir.

51

Lutfing ila berding dili ogoh menga,
Ber xilvati xosing sari yo 'l, oh, menga.
Ishq ahliga bo 'ldi ismim avrodi^[8] namoz,

- To bo 'ldi noming virdi^[9] sahargoh menga.*
- 52 *Xayringni darig ' tutmading avboshlardan,
Tavfiqni-da lutfing ila ayyoshlardan^[10].
Ollohim, umid O 'zingdan — Od qavmi kabi
Yer yuzini pok ayla qizilboshlardan!^[11]*
- 53 *Har ikki jahonda ishq erur rahbarimiz,
Irfon nuri dil dengizida gavharimiz.
To ko 'hna libosi ma 'rifat bor tanda,
Kechdik zaru ziynati jahondan barimiz!*
- 54 *Charx etdi judo mendan o 'shal mohimni,
Yetkazdi falakka nolai ohimni.
Sham 'dek kuyar-u, yig 'lagusi holimga
Har kim eshitar ohi sahargohimni.*
- 55 *Xalq suhbatidan chekkaga tortdim o 'zni,
Dunyodan uzildim, Haqqa qotdim o 'zni.
Ko 'z qorachig 'idek seni ko 'rgan lahza
Behud bo 'lib, ey do 'st, yo 'qotdim o 'zni.*
- 56 *Yo Rab, karaming qildi Senga yor meni,
Lutfing o 'zgadan ayladi bezor meni.
Har lahza O 'zing asra — urib til tig 'ini
Qilmoqchi esa har kishi bemor meni.*
- 57 *Ey sen — shior etgan dinini Hazratning^[12],
Gar istar esang ravnaqini millatning,*

To'k qonini sunnat tig'i birlan doim

Kim yoqsa agar otashini bid'atning!

58

Yorning joni yorga nisor bo'lsa, na xush!

Dard ahliga darmonu mador bo'lsa, na xush!

Oshiq kishi oshuftayu xor bo'lsa, na xush!

O'z ko'ngli kabi asiru zor bo'lsa, na xush!

59

Ka'ba qiblası erur har insu jonning,

Pok rutbasi, chunki uyidir Rahmonning.

Sen qora qo'ngil ila tavof etma uni,

Bu dargohi oliy mahaki^[13] insonning!

60

Ey do'st, agar ishim yurishsa, na xush!

Maqsadga yetib, dilim yorishsa, na xush!

Men tashrifidan do'stning ajab xushholman,

Do'st do'sti bilan mudom ko'rishsa, na xush!

61

Dilga o't soldi nozu istig'nosi,

Aqlu hushim oddi qomati ra'nosi.

Zulfi kabi aylab meni sargashtayu zor,

Hayron etdi husni olamorosi.

62

Bir toifada havoı nafsu shayton,

Bir toifada rizoi dinu Rahmon,

Bir toifada umidi vasli jonon,

Bir toifaning ko'ksida dog'i hijron.

63

Men g'amzadaga ishing adovat mangu,

Solmish bu adovat yuragishta qayg'u.

Qilding-ku gunoh — endi nedir uzr aytmoq?

Uzri gunohidan battar degani shu!

64

Bu mash'alga jon gulshani maskan bo'lsin!

Misli sarv uning makoni gulshan bo'lsin!

Shu mash'aladan barcha omilliklarning^[14]

Zulmat kechada ko'zlari ravshan bo'lsin!

65

Biz kelmadik olamga faqat istab jon,

Yo surgali do'stlar ila davru davron.

Biz bunda jamoling ko'rgali kelganmiz,

Bas, maqsadimiz emas tamoshoi jahon.

66

Ul qavm asiri dog'i hijrondirlar,

Tuproq bilan yakrang-u, yaksondirlar.

Darvesh kabi bo'lsa-da ular suvratda,

Ma'no olamida shohu sultondirlar.

67

Tokay yig'lay dardu g'amingdan, ey dil?

Oshiqliqu oshuftaligingai bas qil!

Tutsam yo'lini soz edi darveshlikning,

Podshohlikdan bo'lmadi maqsad hosil.

68

Men o'zga go'zallarni netay, bo'lmasa yor?

Gar turmasa qoshimda mudom erka nigor?

Ko'z gavhari u vale ko'zimning yoshidek

Gar topmasa na ko'zda-yu, na yuzda qaror?

69

*Davron g'amidan zarracha g'am yo'q menda,
Charx aylanishidan-da alam yo'q menda.
Ishqingda yo'qotmishman o'zimni andoq —
Parvo senga ham, o'zgaga ham yo'q menda.*

70

*Anduh to'la olam g'amidan dam urma!
Sindirma safo jomini — barham urma!
Kofirtabiat nafsing uchun tir bo'lsang,
Yuz bor senga tig' ursa-da, sen dam urma!*

71

*Tokay ko'raman turqini avboshlarning?
Tokay eshitay ayshini ayyoshlarning?
Dunyoda qizilboshdek yomon toifa yo'q,
Ber margini, ey Xudo, qizilboshlarning!*

72

*Ey Tangri, hamisha ayla manzur meni,
G'am olamida xurramu masrur meni.
Lutfing bois Nishopur azizlarining
Pok ruhi bu kun qo'lladi oxir meni!*

73

*Hech kimsaga tekkizma zaboni poking,
Bo'lsin, desang, osuda bu joni poking.
Iflos qiladi og'izni g'iybat, bilsang,
Bas, bulg'ama hech qachon dahoni poking.*

74

*Bermish hamma narsani Olloh senga,
Tutmish nusrat yalovin, ey shoh, senga.
Qayga qadaming yetsa, Xudo hukmi bilan
Ochilg'usi fath eshigi har goh senga.*

75

*Ey dil, ikki dunyo g'amidan dam urma!
Bas, ko'rgan emassan uni san, dam urma!
Nokas eli boshishta agar tig' ursa,
Yuz bor tig' urgani bilan dam urma!*

76

*Ey Tangri, seningsiz menga jo(y) berguchi yo'q,
Shafqat-la mudom lutfu ato berguchi yo'q.
Sen bermasang dardimga davo — kim bergay?
Sendan o'zga menga davo berguchi yo'q.*

77

*Fayz yetgusi zikr ila dili ogohga,
Ul fayz egasi yaqin bo'lar Ollohga.
So'z derlar-u «lo iloha»dan, yetgaylar —
Mohiyati «lo iloha illalloh»ga.*

78

*Ul barchani to'yg'azar o'lim sharbatiga,
Ul barchani o'tqazar balo masnadiga.
Yotqizga-yu bir kuni fano tobutiga,
Ul barchani bir-bir tiqar tuproq qatiga...*

79

*Ey Tangri, karamingni fuzun ayla menga,
Qo'llab meni, lutfing tunu kun ayla menga.
Tortar esa qayda fitna girdobi meni,
Ul fitna balosini zabun ayla menga.*

80

*Yor ayladi to nafsi sitamkor meni,
Sust etdi o'z ilkim ila ham xor meni.
Xorlikka sabab sustlik ekan, bas, yo Rab,*

Bul ikkisiga qilma giriftor meni!

81

*Intilsam agar sohibi gavhar bo‘laman,
O‘z dushmanim ustidan muzaffar bo‘laman!
Noumid emasman sira — Haq lutfi bilan
Balki butun olam uzra sarvar bo‘laman!*

82

*Haq lutfi bilan agar nazar topgayman,
Qayga qadamim yetsa, zafar topgayman.
Har fathu zafarning ketidan paydarpay,
Haq lutfi bilan fathi digar topgayman!*

83

*Dunyoda zo‘r o‘g‘ri Ahmadi Afshordir,
Ustozi Said G‘iyosaki ayyordir.
Har yerda tuban o‘g‘ri, qaroqchi bordir,
Homiysi ularni(ng) mana shu murdordir.*

84

*Tokay ko‘rasan xoru parishon o‘zni,
Har lahza xarobu xonavayron o‘zni.
Majnun kabi devona bo‘l-u, ayla xalos
Olam elining qo‘lidan, ey jon, o‘zni!*

85

*Yor sehru fusun bandiga soldi bu kecha,
Yuz ishva bilan dilimni oldi bu kecha.
Boshim nega ko‘kka yetmasin bu baxtdan —
Dil o‘rnida ko‘ksimda u qoldi bu kecha.*

86

*Bulbul kabi ko‘nglim nola etsa, ne ajab?
Parvoz kilib, arshga yetsa, ne ajab?*

*Aylansam-u tuproqqa vafosi yo'lida,
Hokim-da vafo hidin taratsa, ne ajab?*

87

*Ko'z haqqi, liqoyingni sevarman, ey do'st,
Har lahza safoyingni sevarman, ey do'st.
«Sev, — desang, — itimni», seni deb ul itni —
Timsoli vafoyingni sevarman, ey do'st.*

88

*Ey do'st, zafar nasimlari yelmoqda,
Bizga g'alaba xabarlar kelmoqda.
Bir g'oziy o'zini dushman ustiga otib,
Yov boshini jismidan judo qilmoqda...*

89

*Afsuski, davri ishratu mul kechdi,
Vaqti sumanu lolayu sunbul kechdi.
Qayda meni(ng) gulchehram — uning orazisiz,
Faryodu fig'onki, mavsumi gul kechdi!*

90

*Ishq olami ichra porsolik xushdir!
Nokasdan ilik yuvish — judolik xushdir!
Yor bo'lsa agarda nomuvofiq — kechmoq,
Yor bo'lsa muvofiq oshnolik xushdir!*

91

*Ishi bu jahon xo'blarining ayyorlik,
Ul kampiri shumdek qilig'i g'addorlik.
Zinhor ular makridan o'lma g'ofil,
Ezgu sifatini ko'rdim esa pargorlik^[15].*

92

Yor dardida jon hamisha hayronim erur,

Dil kuygan o'shal siynai so'zonim erur.

Ul barcha parishon dillar jam'iyati —

Sohibi dili zoru parishonim erur.

93

Ko'yingda topilmas kishi to Majnun emas,

Dil yo'qki, chekib g'amingni u mahzun emas.

Ko'zlarga nigoh tashladim-ey ko'z uyidan,

Bir diydani ko'rmadimki, ul purxun^[16] emas.

94

Ishq olami ichra dilda bir zor qani?

Siynam kabi bir siynai afgor qani?

Dil ohi kabi hamdamu dildor qani?

Dildosh jo'ralar, hamnafasu yor qani?

95

Ul sho'xki, dilozeru jafokorim erur,

Ham yori vafodoru havodorim erur,

Yuz nozu karashma ichra makkorim erur,

Harchand sitamkoru dilozerim erur.

96

Bul ko'xna jaxrn boshdan-oyoq vayronidir,

Obodligi tuproq ila yaksondir.

Sen unda makon tutma sira — ko'hna jahrn

Oromgahi devu dadu^[17] shaytondir.

97

Har sunbuli toza zulfi dildor emish-ey,

Har lola jamoli lolaruxsor emish-ey,

Har sarvi baland qomati yor emish-ey,

Har g'uncha dili bir oshiqi zor emish-ey.

98

*Ey diyda, degil, menga yetar binolik,
Ey aql, dema, na xush bu donolik!
Biz jumla gunohkoru xatokorlarmiz,
Afv etmasa Ul, bo 'lgay ajab rasvolik.*

99

*Bir sho 'x sanamu soyai shamshod bo 'lsa!
Dillar yana g'am qaydidan ozod bo 'lsa!
Xushdir juda may jomiyu mahbub husni
Anhoru saroyi Astrabod bo 'lsa!*

100

*Muhtojga qayish — asli karomat shuldir,
Bir ishki, yo 'q ortida malomat — shuldir.
Har ikki jahonda, soliko, iymonni
Qutqarguchi chin rohi salomat shuldir.*

101

*Ilm asli hama tasavvuru tasdiqdir,
Bilmoq uni Haq lutfi bilan tavfiqdir.
Chunki bu tasavvurot tasdiq juz 'i,
Nazdida muhaqqiqni(ng) bari tahqiqdir.*

102

*Sendan rizo ko 'zlagan Ubaydullohdur,
Lutfing so 'rab bo 'zlagan Ubaydullohdur.
Har ikki jahonda ko 'zu ko 'ngil birlan
Sendan seni izlagan Ubaydullohdur.*

103

*Rind ahlini(ng) sarmanzilidir manzilimiz,
Olam elidan ozodlik hosilimiz.
Ul dilki, jahonda yarar ishga — boshqa,
Ul dilki, yaramas ishga — bizning dilimiz.*

104

*O'z ilmiyu fazli bila kim mag'rurdir,
O'z baxtiga dushmanlik ila mashhurdir.
Har dilki, Xudo nuri bilan ma'murdir,
Jahl zulmatidan forig'u ham masrurdir.*

105

*Har yo'l bila Haq vasfini qilmoq na xush!
Yor-ko'k zikr aytishini bilmoq na xush!
Sokin bo'libon yolg'izlik go'shasida
Har lahza Xudo yodi-la bo'lmoq na xush!*

106

*Ul sho'xi jafopeshaki, dildor bizga,
Har yerda qilar u qasdi ozor bizga.
Jom birla qadah misoli la'li labisiz
Qon yig'lash-u, qon ichish erur kor bizga.*

107

*Yor orazining husnu safosi o'zga,
Yor manzilining obu havosi o'zga.
Firdavs agarchi yaxshi joydir, ammo,
Yor turgan o'shal joyni(ng) bahosi o'zga.*

108

*Mavjudligim boisi g'amingdir, jonon,
Ko'nglim mulki sening g'amingsiz vayron.
Qo'rqar kishilar namuncha jon bermoqdan?
Io'lingda berish jonni juda ham oson.*

109

*Diydorini bir ko'rish uchun zor bo'ldim,
Diydorining orzusida bemor bo'ldim.
Bas, davlati diydoriga yetkaz, yo Rab,*

Umrim boricha tolibi diydor bo'ldim.

110

*Bulbul biz uchun o'qiydi bog' ichra g'azal,
Shodlik ulashar ko'ngilga gullarki, go'zal.
Ul pirniki, mug' dayri aro ko'rgaysan,
Mayxonalar ichra bizga yo'lboshchi o'shal.*

111

*Ollohi karimning karami yor menga!
Pok ruhi ulug'larni(ng) madadkor menga!
Haq yo'lida boshdan jonu dil birla kechib,
Kuffor qonini to'kish erur kor menga!*

112

*Har kimsaki, Haq ishlaridan mahrumdir,
Ul ham Haq-u, ham xalq oldida mazmumdir.
So'z ochmak emas ravo kishining ishidan,
Haq oldida chunki hammasi ma'lumdir.*

113

*Kimning dili toshdan-da esa mustahkam,
Dilmas o'sha toshdir chinakam, yo'q shubham.
Undandir uzoq saodatu davlatu baxt,
Bedavlatu besaodatu badbaxt ham.*

114

*Yor bizga agar yor bo'lsa — davlat shu!
G'amxo'ru talabgor bo'lsa — davlat shu!
Yor bo'lsa-yu bizga u vafo rasmi ila,
Begonaga ag'yor bo'lsa — davlat shu!*

115

*Har ranji g'azot yo'lini rohat bizga,
Aksincha, unutmoq uni mehnat bizga.*

*Biz yo'lida sidq ila tikibmiz boshni,
Bosh ketsa agar yo'lida — davlat bizga!*

116

*Ko'nglingda agar maraz yo'q bo'lsa, na xush!
Sevgida biror g'araz yo'q bo'lsa, na xush!
Zo'r do'stlarimiz agarchi bordir, ammo
Bu do'stlik aro g'araz yo'q bo'lsa, na xush!*

117

*Aldamchi jahon gulshani gulxan bizga,
Mo'min eliga zindonu maskan bizga.
G'ayr ahliga ko'ngil berish — eng rasvo ish,
Bundan hazar aylaki, u dushman bizga.*

118

*O'ldirsam agar rofiziylarni, bu — ravo,
Bu ish ila Haq hukmini etgayman ado.
Kim og'iz-burun o'pishsa bu qavm bilan,
Dushman erur u bizga, emas do'st aslo.*

119

*Shukri hamaning arzimamay ehsonga,
Zikri hamaning loyiq emas g'ufronga.
Bizning hama toatdan ulug' rizvoni,
Toat bari shoyista emas rizvonga.*

120

*Olam elining sherlari ro'boh^[18] sesha,
Sarvarlari bir xodimi dargoh senga.
Nusrat jilovini tortma hech bu yo'ldan,
Har yerda zafar hamisha hamroh senga.*

121

Ey yor, nima gap, zamona fosid^[19] bo'ldi,

Ul kayfu safo bozori kosid^[20] bo'ldi.

Qilmasdi birov bizga hasad — endi esa

Makr ila hasad etdi-yu, hosid^[21] bo'ldi.

122

Bu bog'ni bugun havosi bisyor xushdir!

Husning nuridan sabzayu gulzor xushdir!

Olloh haqi, gul g'unchasidek pardada bo'l,

Chehrangni sening ko'rmasa ag'yor xushdir!

123

Har kimga ayon bo'lsa sirri Olloh,

Olam elining barcha siridan ogoh.

Kimning dilida: «lo iloha illalloh»,

Sir olamida u zot erur shohanshoh.

124

Mardlar ishi behukmu befarmon bo'lmas,

El birlan ularning ishi oson bo'lmas.

Ranjitma kishini — seni ranjitsa-da u,

Tariqi futuvvatda bu arkon bo'lmas.

125

Dunyoda, netay, nomu nishonni sensiz?

Ham Xizr kabi umri jovidonni sensiz?

Sensiz menta darkor emas bu jonu jahon,

Jono, ne qilay jonu jahonni sensiz?!

126

Yor bo'lsa haqiqiy, bevafolik qilmas,

O'z yoriga bir lahza judolik qilmas.

Yorlar safiga kirsada yotlar nogoh,

Begona bilan u oshnolik qilmas.

127

*Har kimda bu g'am uyida manzil bo'lgay,
Shodlikka u ne tarika moyil bo'lgay?
G'am-qayg'uli bu zamonda, ey yori aziz,
Bir kishi topilmaski, u xushdil bo'lgay.*

128

*Yo Rab, senga dil hamisha moyil bo'lgay,
Doim xayoli vasl ila vosil bo'lgay.
Ul dil sanalur g'ofil emas gar sendan,
Ul dilmas, agar sendan u g'ofil bo'lgay.*

129

*Haq lutfiga gar loyiq esam men — g'amnok,
G'am zangidan dil oyinasi bo'lgay pok.
Bu quvvat ila zeru zabar qilg'umdur
Qal'ang seni bo'lsa-da qal'ayi aflok!*

130

*Dil ahliga men yoru yaqin bo'lgim bor,
Ham do'sti azizi ahli din bo'lgim bor.
Bir lahzada har ikki jahonni unutib,
Dil ahli kabi go'shanishin bo'lgim bor.*

131

*Mard ulki, agar mute'i farmon bo'lsa,
Bir nojo'ya ish qilsa, pushaymon bo'lsa.
Kam ko'rmak o'zin — mardlar kamoli, toki
Qar narsada o'z aybi namoyon bo'lsa.*

132

*Kim Haqni unutsa — o'sha g'ofil bo'lgay,
Ko'ngli o'lar-u, tuproq ila gil bo'lgay.
Kim ko'ngliga Haq yodi bilan bersa hayot,*

Ul ikki jahonda barhayot dil bo'lgay!

133

*Ishqing g'ami ko'ngrimda fuzun bo'lgaydir,
La'lingni ko'rolmay, diyda xun bo'lgaydir.
Ko'z gavharisan — ketma sira ko'zdan uzoq,
Ko'z gavhari birla ko'z butun bo'lgaydir.*

134

*Har bodki, o'shal Buxoro yoqdan yelgay,
Gardeki, menga yo u tarafdan kelgay,
Har lahza o'shal epkin-u xoli mushkin
Ul «Bog'i dilor» hidin ma'lum qilgay.*

135

*G'am-g'ussa o'tida yoving har on kuysin!
O'z dardiga qovrilsin-u, pinhon kuysin!
Sunniylar yoqqan bu urush otashida
Din dushmani — rofiziylar beomon kuysin!*

136

*Ey Tus, bu kun xarobu vayron bo'lding,
Sovrilding-u yellarga — parishon bo'lding.
Ostin-ustun qildi balo tog'i seni,
Tuproq bilan sen yana yakson bo'lding.*

137

*Tus mulkida Haq bizga ato baxsh etgay!
Bor bo'lsa shaharda har vaqo — baxsh etgay!
Muhlat bering-u, mening kabi sabr aylang,
Har qal'aki bor, bizga Xudo baxsh etgay!*

138

*Dunyoda Xudo lutfu ato baxsh etgay!
Uqboda huri nozik ado baxsh etgay!*

*Har ikki jahonda nimani istar esam,
Ul istaganim menga Xudo baxsh etgay!*

139

*Ko 'zim kuyar ul sarvi ravon furqatida,
Ko 'nglim kuyar yori mehribon furqatida.
Dard otashi birla chorasizlik g'amidan
Ko 'ksim kuyar, o 'rtanadi jon furqatida.*

140

*Do 'stlar, dilima balo bo 'lishga ne sabab?
Xasta jonima jafo bo 'lishga ne sabab?
Har lahza mening hamdamu yorim edingiz,
Bir bora bu kun judo bo 'lishga ne sabab?!*

141

*Joning vujuding tufayli g'amnok bo 'lgay,
Aybu kinadan garchi diling pok bo 'lgay.
Ziyrak ko 'zim-ey, ko 'rib turibsan-ku o 'zing:
Bor bo 'lsa nima, oqibat u xok bo 'lgay...*

142

*Tus shahrini qal'asi to vayron bo 'lmas,
Zarra kabi har yoqqa parishon bo 'lmas,
Bo 'lmas bu shahar yangidan aslo obod,
To Tus qaro yer ila yakson bo 'lmas!*

143

*Bu ko 'z yoshlar diydai giryondandir,
Dilning ko 'zidan-u, diydai jondandir.
Bo 'lgay ular muzdi^[22] afvu rahmat, chunki
Haq qo 'rquvidan-u, zikri Qur'ondandir.*

144

Dushman dili bu jahonda mahzun bo 'lsin!

Dil qoni tepib ko 'ziga, purxun bo 'lsin!
Bu lahza menga yetipgdi yangi nusrat,
Bu fathu zafar qutlug 'u ma 'mun^[23] bo 'lsin!

145

Tokaygacha fisq ahli bilan yor bo 'lasiz?
Olamdan-u, o 'zdan necha bezor bo 'lasiz?
Pandim shu: qiling fisqu fujurdan tavba,
Gar qilmasangiz tavba — keyin xor bo 'lasiz!

146

Oshiqlik udum-rasmi to paydo bo 'ldi,
Oshufta dilim jahonda yakto bo 'ldi.
Har dil u pari zulfiga shaydo bo 'ldi,
Devona dilim kabi u rasvo bo 'ldi.

147

Farzona dilim ko 'yingda Majnun bo 'lsin!
Ko 'nglimda yuzingning ishq i afzun bo 'lsin!
To rashku hasad ichra yumuq g 'uncha kabi
Oshufta ko 'ngillar bari mahzun bo 'lsin!

148

Noshukur kishi podshodan nologay,
Har mehnatu ranju har balodan nologay.
Haq dushmani u — hech gana qilmas o 'zidan,
Ham do 'sti Xudoyu, ham Xudodan nologay!

149

Ishrat uyiga so 'fiyimiz kam kirdi,
Bu g 'amzadalarga ta 'na tig 'in urdi.
Kirdi-yu hasad birla parishon qildi,
Qay damki, bizing davrani ko 'zi ko 'rdi.

150

*Ul toifa ko 'nglim asiri g'am qildi,
Mazlum kishilarning ko 'zini nam qildi.
Bizning bu karamlarni karam birla etib,
Ne tong, bekaramlar karam ham qildi.*

151

*Umrin u go 'zal ishq bilan o 'tgusidir,
G'am gardi aro misli tuman o 'tgusidir.
Ko 'z bog 'ladim Haqdan o 'zgadan, chunki umr
Ko 'zni yumib-ochguningcha san o 'tgusidir...*

152

*Ich yonganidan ko 'zimda ob qolgan emas,
Betob bo 'lib, tanimda tob qolgan emas.
Tortdim g 'amingda shu qadar bexoblik,
G'amdida bu ko 'zim ichra xob qolgan emas.*

153

*Ey do 'st, ko 'ying to menga manzil bo 'ldi,
Vaslishta yetishmak orzui dil bo 'ldi.
Dil orzusi yolg 'iz shu edi vaslingdan,
Yuz shukr, ko 'ngil maqsudi hosil bo 'ldi.*

154

*Ezgu ishimizga nafs mone' bo 'ldi,
O 'tkinchi jahon ayshiga qone' bo 'ldi.
Afsuski, bir ish qilmadik Olloh yo 'lida,
Qimmatli hayot shu xilda zoye' bo 'ldi.*

155

*Haqdan u azizlarki, xabar topmishlar,
Yuz bor valilardan-da nazar topmishlar.
Maqsudu murodini ular-da doim
Tun yarmida yoinki sahar topmishlar.*

156

*Na holi dilim charxi falak bilgaydir,
Na sirri nihonimni samak^[24] bilgaydir.
Holimdan emas Xudodan o'zga ogoh,
Na ins-u, na jin-u na malak bilgaydir.*

157

*Ollohn tanishni eng ulug' davlat bil!
Har ikki jahonda izzatu hurmat bil!
Tuz haqqin unutmak — o'g'rilikdan battar,
Tuz haqqini oqlashni buyuk ne'mat bil!*

158

*Ey shohi zamon, Haq karami yor bo'lsin!
Pok ruhi ulug'larni(ng) madadkor bo'lsin!
Tig' bo'lsa agar jang kunida har dushman,
Ul tig' kabi qo'lingga giriftor bo'lsin!*

159

*Haq yo'lida jonimga urarman paykon,
Dushmanga bu dunyoni qilarman zindon.
Haq dushmani deb naq Xoja Abdulxoliq
Dunyosiga shamshir uraman bearmon!*

160

*Farzand agar mute'i farmon bo'lgay,
Haq lutfi unga mudom farovon bo'lgay,
Beshubha, buningdek farzand har doim
Ko'zing nuri-yu, rahmati Rahmon bo'lgay!*

161

*Ul qavmki, mol-dunyoga mag'rur bo'ldi,
Haq lutfidan mosuvoyu ma'zur bo'ldi.
Ul qavmki, anglab buni, tark etdi uni,*

Har ikki jahonda shodu masrur bo'ldi.

162

*Yetganda ajal bu ko'zlaring ko'r bo'lgay,
Ul damda maqomu manziling go'r bo'lgay.
Go'r ichra taning bo'lga-yu pora-pora,
Har porasi bitta ulushi mo'r bo'lgay.*

163

*Ruhim begumon senga har on yor erdi,
Oshufta bu jonim-da mudom zor erdi.
Dil bo'lgan emas endi giriftor senga,
Ul asli azal senga giriftor erdi.*

164

*Har kim senga bir omonatin keltirdi,
Va'dangni olib, senga ishonch bildirdi.
Bas, aslo omonatga xiyonat qilma,
Ul yukni diyonat yuzidan qoldirdi.*

165

*Ey yor, agar xayr etsang, xush bo'lgay,
O'zni g'animi g'ayr etsang, xush bo'lgay.
Xush bo'lsa-da olam senga dil olamidan,
Dil olamiga sayr etsang, xush bo'lgay.*

166

*Har kimsaki, johillar ila bo'lgaydir,
Din hukmicha, g'ofillar ila bo'lgaydir.
Har kimsa yaqin bo'lsa kamol ahli bilan,
Haq lutfi-la komillar ila bo'lgaydir.*

167

*Chin dildan ibodating ado qilgayman,
Har dam seni(ng) haqqingga duo qilgayman.*

*Izlab bu jahon ichinda diydoringni,
Vaslingni u dunyoda da'vo qilgayman.*

168

*Haq yodidan ayri ko'ngil eng mazmumdir^[25],
Shayton bilan aloqasi ma'lumdir.
Har kimki Xudo yodi bilan bedor emas,
Bunday kishini tirik dema, marhumdir.*

169

*Sargashtasi yorning dilu jondan kechgay,
Ovvorasi bo'lsa, xonumondan kechgay.
Devonasi aqlu hushini tark aylab,
Bir lahzada har ikki jahondan kechgay.*

170

*Afsus, bebaho umr ravon o'tgusidir,
Bu bebaho umr kabi jahon o'tgusidir.
Yetmak uchun lomakonga parvoz aylab,
Jon qushi jahondan begumon o'tgusidir.*

171

*Ishqingda har oshiq dilu jondan kechgay,
Ham naqdi hayoti jovidondan kechgay.
Vasl orzusida ko'zni yumib-ochguncha
Ham jonidan-u, ham bu jahondan kechgay.*

172

*Kim to'kkali obro'ying shitob qilgaydir,
Xalq o'rtasida ta'na-itob qilgaydir,
Sen unga javob aylama-yu, jim o'ltir,
O'rnishta farishtalar javob qilgaydir.*

173

Bo'lg'ay na xush ichish bahor faslida may,

*Gulzor oralab, dastalasang gul-da atay.
May tut menga to yangrar ekan nolai nay,
Men may ichay eslab seni, ko 'zi quralay.*

174

*Qildim-u sahar tavofi Sulton Sanjar^[26],
Dedim: ko 'rsat zafar yo 'lin, ey rahbar!
Dedi: zafar istab, duo qilsang sahar,
Haq lutfi-la topga(y)sen sahar vaqti zafar.*

175

*O 'tkinchi jahondan padaring qildi safar,
Bil, ushbu safardan senga yetmaydi xabar.
Pandimni qulog 'ingga il, ey joni padar:
Sen o 'z tashvishingni qil-u, chekma g 'ami zar!*

176

*Ushla otining jilovidan ishratning,
Shodlik bu — shamol, tut etagin davlatning.
Olam elining azizi bo 'lmoq ersang,
Solik kabi tanla yo 'lini uzlatning.*

177

*Sabr ayla jafoga, ey ko 'ngil, bo 'lma tez,
Solik kabi Haqdan o 'zgadan et parhez.
Aylar seni lutf etsa muqarrablardan,
Qahr aylasa-da, etmagil isyon hargiz.*

178

*G 'am xayliga^[27] dardiga mudom malham bo 'l,
Bechora sag 'irlarga yoru hamdam bo 'l.
Topmoq tilasang Haq nazaridan asare,
Darvesh elini yaqin tutib, mahram bo 'l.*

179

*Yor ishqida o'zni zor qilmoq yaxshi,
Bir go'shani ixtiyor qilmoq yaxshi.
Sokin bo'lib ul tanholik go'shasida,
Yor yodini dilga yor qilmoq yaxshi.*

180

*Yodingdan uzoq etma bu dilso'zlarni,
Zulmatga mubaddal^[28] aylama ko'zlarni.
Berganda visol mujdasini xoslarga,
Qahr etib, mahrum aylama bizlarni.*

181

*Ishq bodasidan agarchi mastsan — shod bo'l!
Qildingmi najot yo'liga qasd san — shod bo'l!
Xalqdan uzilib gar kecha-kunduz, ey dil,
Yo'qlik go'shasida haqparastsan — shod bo'l!*

182

*Har yerda nayu maydan esa jo'shu xuro'sh,
Bul jo'shu xuro'sh ichra ichish boda na xush!
Zohid kabi bozorga o'zish solma-yu hech,
Porsoliging el ichra sira aylama pesh.*

183

*Ey mard, o'zingga berma ko'p oroyish,
Oroyishi dunyoni erur oloyish^[29].
Osoyishi yo'qdir bu vujud shahrining-ey,
Ul mulki adamda bor magar osoyish.*

184

*Haq yod etishini istasang, zokir bo'l!
Bir dam g'ofil o'lma Undan-u, hozir bo'l!
Ne'mat tilasang visoli bog'idan agar,
Har bir nafasingga shukr et-u, shokir bo'l!*

185

*O'tli yuragimni ayladi sard firoq,
Etdi yana bag'rimni to'la dard firoq.
Xokiy vujudimdan meni xorij aylab,
Tuproq kabi qildi meni-da gard firoq.*

186

*Topsa nazaringdan bahra bir zarra xok,
Bo'lgay o'sha zarraning maqomi aflok.
Mayxonai ishqing ichra beboklarmiz,
Lutfing ila bizlarni-da sen qilgil pok.*

187

*Har lahza go'zal yuzingni ko'rmoq mushkul,
Har dam oyog'ingga yuzni surmoq mushkul.
Vaslishta yetishmoq qiyindir, jono,
Hajr ichra visolsiz-da yurmoq mushkul.*

188

*Ey homiyi dinu hofizi^[30] mulku milal^[31],
Ey qotili kufri dofe'i jangu jadal.
Har qaydagi qo'zg'alsa biror fitnayu sho'r,
Aylarsan uni daf' etib tadbiru hiyal^[32].*

189

*Ey sho'x, qilarsanmi sira chorai dil,
Tokay bo'lasan qotilu xunxorai dil.
Qondir labi har itingning — dil qoni u, boq:
Yotar har yer-har yerda bir porai dil.*

190

*Bo'ldi-yu Xudo lutfi menga yor, ey dil,
Etdim u qizilbosh guruhin xor, ey dil.*

Olooh karamidan bor umidim: bo'lgay —

Ul to'dani shohi-da giriftor, ey dil.

191

Ey ishq eli shohi, dil koshonasida,

Kel so'zlashayik, mavzu: dil afsonasi-da.

Ko'rsatsang agar gul yuzing ummid bog'ida,

Porlar edi ming quyosh ko'ngil xonasida.

192

Qilgancha tavakkal Xudoga keldik,

Mardona niyat bilan g'azoga keldik.

Bir-ikki qadam ilgari chiq sen ham, yov,

Olis yo'ldan biz istiloga keldik.

193

Dunyosida yaxshilikni men kam ko'rdim,

Har holatu raftorida^[33] motam ko'rdim.

Hech tinglamay unda shodlik nag'masini,

Olam-olam mashaqqatu g'am ko'rdim.

194

Tokaygacha dil otashidan g'ash bo'laman?

Yig'lab uning ishqida mushavvash^[34] bo'laman?

Ichdan otashu tashdan esa ko'z yoshi,

Tokay asiri obu otash bo'laman?

195

Qon yosh to'kaman — diydalarim namnokdir,

Ohlar uraman — dilimda ming bir chokdir.

Tuproq'im o'shal qon tufayli qizg'ish,

Jismim o'sha ohdan yelga uchgan xokdir.

196

Yuz shukr, yuzimni oyog'ingga surdim,

*Yillab men shu orzu-tilakda yurdim.
Jon bor ekan tanda, topmadim osoyish,
Jon bahridan o'tdim-u, osoyish ko'rdim....*

197
*Keldik barimiz-da mustaqim^[35] yo'l birlan,
Ko'ying sari pokiza, salim^[36] dil birlan.
Oyoqni qabartirib vafo yo'lida,
Ko'rishgani keldik shu qadim el birlan.*

198
*Bir dard dilimda bor — davo xohlayman,
Haq dorushshifosidan shifo xohlayman.
Hech narsani Haqdan o'zgadan so'rmasman,
Har narsani ham bersa Xudo xohlayman.*

199
*Qirg'og'i yo'q ummon olam ichra odam,
Ummon aro inson umri bir kemai g'am.
Gar qilsa hujum ajal nahangi nogoh,
G'arq aylar-u, tortar o'ziga komi adam.*

200
*Qizg'onaman ishq bodasshsh Odamdan,
Bir tomchisi ortiq uni mulki Jamdan.
Etgay dilu jondan ikki olam g'amini,
Bir qatrasi a'lo har ikki olamdan!*

201
*Ey dil, meni na dev-u, na dad qo'rqitgay,
Yo aybu gunohlar beaded qo'rqitgay.
Olamda bulardan sira yo'q xayfim, lek
Do'st ko'nglidagi kinu hasad qo'rqitgay.*

202

*Oshiqliqu oshuftalik bo'lgach ishim,
Ul ahli safoni(ng) suhbatidir xohishim.
Sargashta ko'zim gavharidek zor-hayron,
Ezgu yuziga Rasulnidir navozishim.*

203

*G'am go'shasi ichra ulfati g'am — bizmiz,
Ham g'amzadalarga do'stu hamdam — bizmiz.
Kamdek shu yog'i, qarang, bu dunyo ishiga:
Angushtnamoyi^[37] ahli olam — bizmiz.*

204

*Ko'rgum u safo ahlida bir nuru safo,
Ko'rgum u nuru safo kabi mehru vafo.
Har lahza basirat ahli yanglig', yo Rab,
Ko'rgum nimaga boqsam O'zingni tanho.*

205

*Rindeki, halollik ichra yakto — bizmiz,
O'z rindligi-la jahonda tanho — bizmiz.
G'am dahrida bozori fano rindi kabi
Rindeki, alam-g'amga beparvo — bizmiz.*

206

*Yor hajrini vahmi bila bemor bo'ldim,
G'am toshining ostiga ko'p afgor bo'ldim.
Zulfiga asir qildi meni zor ko'ngil,
Zor ko'ngilni dastidan giriftor bo'ldim.*

207

*Oshuftasimiz qomati ra'nosini biz,
Devonasi sunbuli sumansosini biz.
Ul bo'lsa jahonning joni — ko'z gavharidek
Hayroni jamoli olamrosini biz.*

208

*Ey do'st, na darvesh-u, na xoqon bo'ldim,
Na shohu biror mulkka, na sulton bo'ldim.
Olamda o'zimcha na u, na bu bo'ldim,
Haq xohlagani kabi bir inson bo'ldim.*

209

*Oshufta bu jon sening fidoying bo'lsin!
Sargashta bu boshim xoki poying bo'lsin!
Har ish bo'ladi sening rizoying birlan,
Alqissa, menga sening rizoying bo'lsin!*

210

*Mug' dayrida biz may xumiga bosh urdik,
Mug'lar ila may o'pib ko'zu qosh urdik.
Taqvoyu vara'ni bizdan istarlar, biz —
Taqvoyu vara' shishasiga tosh urdik.*

211

*Tokay bu zamon g'amidan afsona bo'lay,
Afsonai har oqilu farzona bo'lay.
Oshiq bo'la-yu, ikki jehrndan kechibon
Bir Laylisifat ishqida parvona bo'lay.*

212

*Tokay firoq zahrini tun-tun ichaman?
Tokay g'amida jomi purxun ichaman?
Tokay yashayin yor labisiz tashnajigar?
Eslab labini bodai gulgun ichaman!*

213

*Haddan o'tdi g'amu malolim, na qilay?
G'addor zamon berdi zavolim, na qilay?
Dodimni O'zingga aytaman shomu sahar,*

Gar tinglamasang sen-da bu holim, na qilay?..

214

Na maykada-yu, na jomi Jam ko 'rgayman,

Na mardi karim-u, na karam ko 'rgayman.

Sayri adam asbobini taxt aylash shart,

Qasdi adam etmish hamma ham — ko 'rgayman.

215

Ishqing ulug' ummonida bir xas — bizmiz,

Shavq gulshani ichra guli navras^[38] — bizmiz.

Bizlarga muruvvat et, g'arib shahr ichra

Darveshi g'arib, bexeshu bekas — bizmiz.

216

Ul sho'x firoqi tig'idan afgorman,

Hijroni balosi vahmidan bemorman.

Har o'qki, undan yetadi jonimga,

Jon ichra alif aylagali tayyorman.

217

Yuz shukrki, men ahli shariat bo 'ldim,

Ham mashhuri arbobi tariqat bo 'ldim.

Maqsad menga asrori haqiqat, shundan —

Men oshiqi asrori haqiqat bo 'ldim.

218

Ey yor, sening ishqingda giriftor men ham,

Yuz g'am bilan oshuftaman, ey yor, men ham.

Ko 'rsatgil uzoqdan gahi diydoringni,

Ey yor, senga tolibi diydor men ham.

219

Mushtoqiman husni olamoroyingni,

Ham bandasi turrai^[39] sumansoyingni^[40].

Ey gul, talab vodiysida misli sabo

Izlab yelaman qomati ra'noyingni.

220

Ey husn elining shohi, gadoying bo'ldim,

Majnun kabi zoru mubtaloying bo'ldim.

Begona bo'lib hammadan-u, jondan ham,

Chin dil bila men sening fidoying bo'ldim.

221

Lutf etsa Xudo menga ne bok vahmi jahim,

Uzmasman umidni sira sendan-da, naim.

Har ikki jahonda men gunohdan cho'chimam,

Har ikki jahonda Haq karim hamda rahim.

222

Ey do'st, fano dayrida hamxona bo'lay,

Sarhalqai^[41] ahli dayru rindona bo'lay.

Bezdim juda xonaqohdan-u, istayman —

Rind ahli kabi sokini mayxona bo'lay.

223

Oshuftasimiz qomati shamshodingning,

Bandasi hamisha sarvi ozodingning.

Har sho'xiga har shaharning oshiqmasmiz,

Biz oshig'i sho'xi Astrabodingning!

224

Tokaygacha bechorayu hayron bo'laman?

Zulfi kabi sho'xlarni parishon bo'laman?

Ixlos ila xizmatin qilish orzusida

Men navkari sultoni Xuroson bo'laman!

225

Ey Tangri, hamisha notavoningman o'zim,

Pinhona yuzingta nigoroningman o 'zim.

Muhtoj agarchi senga ko 'pdir vale,

Eng bandai zor — bexonumoningman o 'zim!

226

Tokaygacha so 'z darozu ko 'toh deyman,

Yo 'l ranji, safar azobidan oh deyman.

Demakka bu bari hasbatanlilloh^[42] deb,

Bas, endi mudom hasbatanlilloh deyman.

227

Dunyo tuban ham bevafoni na qilay?

Ul ma 'shuqi har shohu gadoni na qilay?

Dilu din uchun u bir baloyi ofat,

So 'yla, bu kabi turfa baloni na qilay?

228

Sensiz menga jon chikora — jonni na qilay?

Jon olami ichra bu jahonni na qilay?

Gar kavnu makonu^[43] lomakon sensiz esa,

Ul kavnu makonu lomakonni na qilay?

229

O 'zdan o 'tibon, yoriman bexeshlarning,

Ham zaxmiga malham bari dilreshlarning.

Tuproq uyida o 'zni baland tutmoq bas,

Xoki qadamiman jumla darveshlarning.

230

Ey yor, yuzingga qachonki tushdi nazarim,

Yo 'qdir hech o 'shandan beri o 'zdan xabarim.

G'am tunida ohimdan hazar et zinhor,

Nogoh seni to tutmasin ohi saharim.

231

*Ka'bani tavof etgali Bag'dod boramiz,
Ko'ngilni qilib xurramu ham shod boramiz.
Ka'ba safari anjomini shay aylab,
Botin uyini etgali obod boramiz.*

232

*Ming qatla shukr — har kun ahad deyman men,
Yuz bor uni, ming bor — beadam deyman men.
Ixlos ila anjumandayu xilvatda
Ollohu ahad, samad, samad deyman men!*

233

*Ishq maktabida bu kun sabaq ayturman,
Safha-safha, varaq-varaq ayturman.
Sen tingla so'zimni-yu, itoat ayla,
Men chunki hadisi hukmi Haq ayturman.*

234

*Yuz shukrki, Haq dushmaniga yormasman,
Haq do'sti bilan yorman-u, ag'yormasman.
Dushman kabi nafsimga giriftormasman,
Zorman Unga-yu, o'zgaga hech zormasman.*

235

*Bu kulol, bilsang agar, ey shayxi kirom,
Qilgay butun elning xokidan ko'za tamom.
Jisimingni ajal bir kuni tuproq etsa,
Bir ko'za qilar seni-da qoyilmaqom.*

236

*Hasrat chekaman misoli ahli motam,
Har yoqdan yetar ko'nglimga lashkari g'am.
Umring qadaxiga sira mag'rur bo'lma,
Chil-chil sinar u jaf o'ziga tekkan dam.*

237
*Ochlik g'amidan yetdi bu jon labga, ajab,
Tark ayladi-ketdi meni bor ayshu tarab.
Men vositayu sababni, yo Rab, ne qilay?
Bevosita rizqni berasan ham besabab.*

238
*Hamrozu azaldan unga, hamxona manam,
Hamkosai doimiyu begona manam.
Mayxona bilan yaqinligim bordir azal,
Shundan mudom sokini mayxona manam.*

239
*Ishq axlidek ishq elida afsona o'zim!
Afsona-yu, yor bazmida begona o'zim!
Laylisifat ul yor ishqining dashti aro
Aqlu hushidan begona devona o'zim!*

240
*Yov ta'na toshin bo'ynima ilsa, ne qilay?
Bag'rimni jafo tig'i-la tilsa, ne qilay?
Asli ikki pulga qimmat olam shuni deb,
Bo'g'zimga mening kelib tiqilsa, ne qilay?*

241
*Yetkazgusi Olloh sari xilvat kishini,
Toat etay, unutib jahon tashvishini.
Umr avvalida ortmadim dunyo ishidan,
Umr oxirida endi qilay din ishini.*

242
*Vasling harami ichinda xos ayla meni!
Hajring g'ami bandidan xalos ayla meni!
Xoslar ila suhbat tuzadi mahramlar,*

Ko 'rsat karam-u, O'zingga xos ayla meni!

243

*Har lahza talab qilar visolingni dilim,
Vasling talabidir ko 'nglim ichra hosilim.
Bir kuni vafo ko 'yida o 'lsam, ey do 'st,
Orzum shu: taratsa vafo bo 'yini gilim.*

244

*Ishq ichra manam yagonai ikki jahon,
Oshnoyu kamolda toq sanamga, nigaron.
Ishqida falakdek eruram sargardon,
Bo 'lmaydi tutib bu sirni eldan pinhon.*

245

*Haq nomisiz, ey, so 'zingni yelga sochma,
Gapni ba 'zilardek sira olib qochma.
Yum ko 'zni-yu Haqdan o 'zgasidan doim,
Zinhor uni Haqdan o 'zgasiga ochma.*

246

*Zulfiing havasi yashaydi ko 'nglimda mudom,
Yuz shavqi base yashaydi qo 'nglimda mudom.
Qoshing kabi biz tarafga ham bir qayril,
Qoshing qorasi yashaydi ko 'nglimda mudom.*

247

*Na mehnati dardu dog ' bor ko 'nglimda,
Na hasrati bog 'u rog ' bor ko 'nglimda.
Har ikki jahondan o 'ldi ko 'nglim forig ',
Har ikkisidan charchoq bor ko 'nglimda.*

248

*Ey Tangri, meni xalqqa rahbar ayla!
Sardaftaru sarfarozu sarvar ayla!*

G'am dashti aro falak kabi sargardon —

Etma meni-yu, dilim munavvar ayla!

249

Jon olamida sen kabi bir jon bo'lmas,

Husningni ko'rib, men kabi hayron bo'lmas.

Ko'ying kabi menga bog'i rizvon bo'lmas,

Mendek unda bir bulbuli nolon bo'lmas.

250

Ey rofiziylar, sizni halok qilgayman!

Sizlar kabi nopokni pok qilgayman!

Tokay ketingiz ko'rsatasiz qumtepadek?

Shul qumtepadek sizni-da xok qilgayman!

251

Din yo'liga tik boshni — sarafrozlik qil,

Doim jihod ahli ila hamrozlik qil.

Tez vasliga yetmoq tilasang Ollohning,

Topshir Xudoga jonni-yu, jonbozlik qil.

252

Ahdingga xilof ish sira, ey yor, qilma,

Har yerda o'zingni bu bilan xor qilma.

Va'daga ba'zan vafo qilolmassan ham,

Bas, hech kishiga va'dani bisyor qilma.

253

Ka'baga kishi borsa — na xush davlat bu!

Unda yugurib, horsa — na xush davlat bu!

Olloh uyida bori jahonni unutib,

Rabbiga dilin yorsa — na xush davlat bu!

254

Ul o'tli muhabbating ko'nglimda mudom,

Fikri g‘ami furqating ko‘nglimda mudom.

Sensiz o‘tirgan esam-da har majlisda,

Andishai suhbating ko‘nglimda mudom.

255

Keltirmadi yorim yodiga ko‘nglimni,

Ham yetmadi bir bor dodiga ko‘nglimni.

Dil orzusi undan ushalarmi desam-ey,

Yetkazmadi hech murodiga ko‘nglimni.

256

Ishq etagidan qo‘lingni ko‘toh ayla,

Yo‘l gardidek o‘zingni xoki roh ayla.

Har ishni Xudo yo‘lida qilmoq bo‘lsang,

Olloh haqi, xolisanlilloh ayla!

257

Haq do‘stiga, ey do‘st, madadkorlik qil,

Yorligu havodorligu g‘amxorlik qil.

Olloh yo‘lida qilib har ezgu ishni,

Haq lutfu karamiga umidvorlik qil.

258

Bir lahza, ko‘ngil, xurramu masrur bo‘lma,

Uz toatu zuhding ila mag‘rur bo‘lma.

Sen o‘zni unut — muqarrabi Haq bo‘lasan,

Lek Haqni unutma sira — kofir bo‘lma!

259

Rahmat tarafdorligu sardorligingga!

Rahmat vafodorligu ham yorligishta!

Rahmat vafo yo‘lida bizga qilgan

Olloh karami birla madadkorligingga!

260

*Haq yo 'lida, ey do 'st, uchrashish bor bizga,
Ollohning o 'zi pushtu panoh, yor bizga.
Haq qo 'llamasa — zafar muyassar bo 'lmas,
Gar mo 'ru malaxdek jangchi bisyor bizga.*

261

*Ey dil, vujudingni tark etib, foniyl bo 'l!
Nafsingni taloq ayla-yu, ruhoniyl bo 'l!
Hech tinglama yolton ila nohaq so 'zni,
Haqni eshit-u, Haqni de — haqqoniyl bo 'l!*

262

*Yetkazgay u sho 'x jabru jaf oshiqqa,
Yuz turfa g 'amu dardu balo oshiqqa.
Shu kungacha hech kimga vafo qilmadi, bas,
Qilmog 'i gumon endi vafo oshiqqa.*

263

*Sindi qadahi-yu, ketdi Jam ham izidan,
Chekib alamu anduhu motam izidan.
Bu g 'amkadada^[44] birgina shodlik tilasang,
Kelgay qidirib shu lahza ming g 'am izidan.*

264

*Hech so 'zlama yolgon, ey yaxshi inson,
El oldida noravo gapirmoq yolg 'on.
Bossin desang oldinga ishim rostlik ila,
Kasb ayla-yu rostlikni, rost so 'zla har on.*

265

*Mayxona aro tolibi kommiz barimiz,
Rindmiz, agarchi neknommiz barimiz.
Bizdan sira jom birla karomat tilama,
Zeroqi, muridi shayxi xommiz barimiz.*

266

*Ey, ezgu jamoling tarabafzoyi^[45] hama,
Diydoringni ko'rish tamannoyi hama.
Tortmasman oyog'ingni xoki ko'yingdan,
Zero, xoki ko'ying erur joyi hama.*

267

*Yo'q jismim aro mador, oh dardingdan!
Dilda g'am o'qi qator, oh dardingdan!
Tokay chekay, ey nigor, oh dardingdan!
Oh dardingdan, ming bor oh dardingdan!*

268

*Yolg'izlikdan nolima, ey yaxshi kishi,
Haqdan tila — Haqdan bitadi banda ishi.
Olloh degil, hasbatanlilloh degil,
Bo'lsin desang Ollohni(ng) mudom navozishi.*

269

*Tokaygacha yig'lar dilu jon dardingdan?
Tokay qilaman nola-fig'on dardingdan?
Dunyodan o'tarman g'amu hasrat birlan
Faryod etibon, oh chekibon dardingdan!*

270

*Ey, qiblai hojot Sening dargohing,
Qilgay tavof har zot Sening dargohing.
Qoldirmagay olamda biror kimsani ham
Bechorayu benajot Sening dargohing.*

271

*Yayrar vujudim ne'matining lazzatidan,
Osuda dilim furqatining mehnatidan.
Yuz qatla shukrki, bahramand etdi O'zi*

Lutfi buluti-la yog 'dirib rahmatidan.

272

Na o 'z ishimizdan malulmiz^[46] barimiz,

Na g 'ofilu nodon-u, na go 'lmiz barimiz.

Yuz qatla shukrki, ahli olam ichra

Biz ummati hazrati Rasulmiz barimiz!

273

Ey Tangri, bu qulga karamingni yor qil!

Bandangni O 'zingdan o 'zgadan bezor qil!

Tunlar meni g 'aflat uyqusiga qo 'yma,

Et ogoh O 'zingdan-u, mudom bedor qil!

274

Ishqida go 'zallarni xarobdir barcha,

Shavq o 'tida o 'rtanib, kabobdir barcha.

Oydek esa-da uyquda qadr tunidagi,

Oydek yuzi birla oftobdir barcha.

275

May majlisida may ila sarxushlik soz!

Hushyorlikdan hamisha behushlik soz!

Sen borsang agar majlisga odob ila

Xomush o 'ltir, baridan xomushlik soz!

276

O 'tkinchi jahonni tark etib ketdi hama,

Ruhning qafasin bir-bir silkitdi hama.

Aslida yaralgandi qaro tuproqdan,

Aylandi yana tuproqqa — yitdi hama...

277

Yolg 'iz o 'zi na ranju alam bo 'lgaydir,

Na zulmu sitam, na dardu g 'am bo 'lgaydir.

*Har qayda quvonch bor — qayg‘u ham bo‘lgaydir,
Ikkisi mudom birga — baham bo‘lgaydir.*

278

*Bir lahza nafs mute‘i farmon bo‘lmas,
O‘z qilmishidan sira pushaymon bo‘lmas.
Dunyodagi bor mazhablar hukmi bilan
Kofir atalur u — hech musulmon bo‘lmas!*

279

*Olsang-da jahonni zo‘r bilan — oxiri hech,
Yuz yil yashasang-da unda san — oxiri hech.
Dunyodagi bor shohlar oyog‘ingni o‘pib,
Tursa seni(ng) xizimatingda shan — oxiri hech.*

280

*Ey yori aziz, kishi mazallat^[47] chekmay,
Yetgaymi xazinaga mashaqqat chekmay?
Din davlatini qo‘lga kiritolmassan,
Din yo‘lida to jafoyu mehnat chekmay.*

281

*Yo Rab, hamma dardga davo qilgaysan,
Dorushshifoyingdan shifo qilgaysan.
Quldir eshigingda shohlari dunyoning,
Sen kimni shoh-u, kimni gado qilgaysan.*

282

*Berguvchisan, ey Tangri, murodimni o‘zing,
Ham tinglaguchisan arzu dodimni o‘zing.
Sen qo‘llamasang — yurishmagay hech bir ish,
Berguvchisan har ishda kushodimni o‘zing.*

283

Ey solik, agar bo‘lsang mardlar fardi,

Pok dilishta qo'nmasin riyoning gardi.

Mardona suluk aylagil andoq, toki

Mardlar atasinlar seni mardlar mardi!

284

Yo'q o'zga g'ami agarda yorim bo'lsang,

Nechuk chekayin g'am — g'amgusorim bo'lsang.

Yaldo tunidek bo'ldi kunim hajringda,

Koshki uni yoritguchi norim bo'lsang.

285

Bo'ldim Xudo lutfi bilan xoni Hirot,

Boshim bezadi afsari sultoni Hirot.

Boz ustiga, bo'ldim ko'zim gavharidek

Oy yuzli go'zallaringni(ng) hayroni, Hirot!

286

Bo'lmay turib, ey yor, hanuz xoni Hirot,

Boshim bezamay afsari sultoni Hirot,

Aqlu hushim oldilar Hirot hurlari-yu,

To'ldi bu dilim ohiga osmoni Hirot.

287

Ey marhami jon, menga davo keltirding,

Bul xasta dilu jonga shifo keltirding.

Izlardim uni o'zga shifoxonadan-ey,

Lutf aylab O'zshgg, menga davo keltirding.

288

Orzum shu: meni xalq ichra mumtoz^[48] ayla!

Lutfu karamingni men sari boz ayla!

Yo Rab, menga in'oming farovon aylab,

Vaqt keldi, bu bandangni sarafroz ayla!

289

*Ey, koshki Vatan «Bog‘i xiyobon» bo‘lsa,
Yo «Bog‘i safid»u, «Bog‘i zog‘on» bo‘lsa,
Yo «Bog‘i dilor»yu, «Jahonoro» ham,
Yo «Bog‘i guliston»u, «Gulafshon» bo‘lsa!^[49]*

290

*Chiqmaydi sira yodimdan yodi Hirot,
Haq qo‘llasa gar bergayman dodi Hirot!
Bo‘lgay yana yangidan ishratobod
Aysh-ishrat ila mehnatobodi Hirot.*

291

*Haq lutfi bilan bo‘lsam agar xoni Hirot,
Insofu adolat ila sultoni Hirot,
Haq lutfi bilan o‘shal zamon bo‘lgayman
Hamsuhbatu hamnishini xo‘boni^[50] Hirot.*

292

*Jon gulshanida g‘unchai xandonim o‘zing,
Dunyo bog‘ida sarvi xiromonim o‘zing.
Sensiz bu ko‘zim hech nimani ko‘rmaydir,
Ey gavhari bu diydai giryonim o‘zing!*

293

*Ey dil, mendan na ko‘z, na jon topgaysan,
Na nola-yu faryodu figon topgaysan.
Topay seni deb o‘zni yo‘qotdim andoq —
Mendan endi na nomu nishon topgaysan.*

294

*Ey banda, sira bermagil ozor kipgaga,
To bor ekan umring, bo‘laver yor kishiga.
Qil andisha — hech dilni giriftor etma,
To nogoh o‘zing bo‘lma giriftor kishiga.*

295

*Bosmaydi ishing olg'a tavakkul qilmay,
Andishai juz'u fikrati kul(l) qilmay.
Gul qoshida dam urma vafodan aslo,
To jabri tikaniga tahammul^[51] qilmay.*

296

*Hech vaqti g'azot uzru takalluf qilma,
O'zingni shu tarz ahli taassuf qilma.
Aytay senga, ey pokiza tiynat g'oziy,
Zinhor g'azo oni taxalluf^[52] qilma!*

297

*Kechib vujudingdan agar hur bo'lasan,
Haq mehriga yor, lutfiga ma'mur bo'lasan.
Vosil bo'lasan vasliga-yu Ollohning,
Nur olamida boshdan-oyoq nur bo'lasan!*

298

*Ey Tangri, bashar ahliga koring bordir,
Pinhon nazaring tushguchi yoring bordir.
Har ikki jahonning egasi Sendirsan,
Har kim bila gohi ixtiyoring bordir.*

299

*Dunyoda topilmaydi o'zingdan xubroq,
Ham husnu jamol olamida marg'ubroq^[53].
Zebolar ichinda yo'q o'zingdan o'tari,
Sendan ko'ra bo'lmaydi kishi mahbubroq.*

300

*Tokay bu tiriklik mayidan mast bo'lasan?
Xorlikka tutib yuz, bir kuni past bo'lasan.
Olloh yo'lida sen o'zligingdan kechgil,*

To O'zi bilan manguga payvast bo'lasan!

301

Sen mardsan agar bo'lsang amir nafsingga,

Ogohu hazir bo'l bir umr nafsingga.

Olamda sira ozodlik topmassan,

Ey banda, agar tushsang asir nafsingga!

302

Umr o'tdi g'amu g'ussa bilan, ey voliy,

Bir lahza dilim bo'lmadi g'amdan xoli.

Xushhollikdan bormi jahonda xabare,

Yo xushhollik ketdi jahondan bosh olib?!

303

Gar bo'lsa jahon zeru zabar, g'am chekma!

Yo bo'lsa u bundan-da batar, g'am chekma!

Sendan so'ramaydi hech kishi hech narsa,

Bo'lsang baridan bas, bexabar, g'am chekma!

1. ↑ Magas — pashsha, chivin.
2. ↑ Musammo — nomlangan, ism berilgan.
3. ↑ Dilreshlik — xasta dillik, dilafgorlik.
4. ↑ Bu ruboiy Ubaydulloxonning amakisi Muhammad Shayboniyxonning 1507 yili Xirotni qo'lga kiritishi munosabati bilan yozilgan.
5. ↑ «Bog'i xiyobon» — Hirotdagi mashhur bog'.
6. ↑ So'z — quydirish, o'rtash; olov, alanga.
7. ↑ Zod — bu yerda: ruhiy oziq.
8. ↑ Avrod — zikrlar, duolar. Bomdod namozidan so'ng o'qiladi.
9. ↑ Vird — duo.
10. ↑ Ayyosh — ishratparast, aysh-ishratni sevuvchi.
11. ↑ Shia mazhabidagi Ismoil Safaviy sipohiylari o'n ikki xil rangdagi lenta o'ralgan bosh kiyimida yurgani uchun qizilboshlar deb atalgan.
12. ↑ Bu yerda Muhammad alayhissalom qo'zda tutilmoqda.
13. ↑ Mahak — oltin-kumushga surtilib, ularning toza-notozaligini aniqlaydigan tosh; sinov toshi.
14. ↑ Omil (Omul) — hozirgi Chorjo'i shahrining qadimgi nomi.

15. ↑ Pargor — sirkul'. Bu yerda majozan sarson qilish, o'z atrofidan aylantirish, ovora qilish ma'nosida kelayapti.
16. ↑ Purxun — qonli, qonga to'la.
17. ↑ Dad — yirtqich, yovvoyi hayvon.
18. ↑ Ro'boh — tulki.
19. ↑ Fosid — buzilgan, buzuq, nojo'ya.
20. ↑ Kosid — kasod.
21. ↑ Hosid — hasadgo'y.
22. ↑ Muzd — xizmat xaqi, ish haqi; mukofot.
23. ↑ Ma'mun — xavf-xatarsiz, tinch-omon.
24. ↑ Samak — bu yerda yer osti ma'nosida kelib, falakka qarshi qo'yilayapti.
25. ↑ Mazmum — ayblang'an, yomonlangan, nafratlangan.
26. ↑ Sulton Sanjar — saljuqiylar sulolasidan sakkizinchi hukmdor (1118—1157).
27. ↑ Xayl — to'da, guruh, toifa; el, jamoa.
28. ↑ Mubaddal — almashtirish, o'zgartirish.
29. ↑ Oloyish — ifloslik, kirlik.
30. ↑ Hofiz — saqllovchi, ximoya qiluvchi.
31. ↑ Milal — millatlar, xalqlar.
32. ↑ Hiyl — hiylalar, firiblar, aldovlar.
33. ↑ Raftor — yurish, xirom aylash, xarakat.
34. ↑ Mushavvash — tashvishli, parishon, beorom.
35. ↑ Mustaqim — to'g'ri, rost.
36. ↑ Salim — sog'lom, salomat, omon.
37. ↑ Angushtnamo — mashhur, dong taratgan.
38. ↑ Navras — yangi o'sib kelayotgan, yosh.
39. ↑ Turra — kokil, soch o'rimlari, zulf.
40. ↑ Sumanso — sumanga o'xshagan.
41. ↑ Sarqalqa — yetakchi, boshliq.
42. ↑ Hasbatanlilloh — Xudo uchun, Xudo haq-hurmati uchun.
43. ↑ Kavnu makon — borliq, koinot.
44. ↑ G'amkada — g'am uyi; majozan: g'amgin dunyo, qayg'uli olam.
45. ↑ Tarabafzo — xursandlikni oshiruvchi.
46. ↑ Malul — ranjigan, g'amgin, xafa, jafo chekkan.
47. ↑ Mazallat — xor-zorlik, bechoralik.
48. ↑ Mumtoz — sarbaland; tanlangan, saralangan, afzal.
49. ↑ Bu yerda Hirotning mashhur bog'lari tilga olingan.
50. ↑ Xo'bon — go'zallar, zebo qiz va ayollar.
51. ↑ Tahammul — sabr, bardosh, chidam.
52. ↑ Taxalluf — ixtilof, nomuvofiqlik, qarshilik.